



HISTORIOGRAPHY OF THE BUKHARA KHANATE DURING THE ASHTARKHANID DYNASTY

Sotvoldiyev Sayfiddin Abduvokhid ug'li

2nd year student of the Faculty of History of Andijan State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16537811>

ARTICLE INFO

Received: 20th July 2025

Accepted: 27th July 2025

Online: 28th July 2025

KEYWORDS

"Muhit ut-tavorix" (Sea of Histories), "Tazkirayi Muqimkhoniy," Russian Ambassador A.F. Negri, Mulla Sarfarozi, "Silsilat us-salotin" ("Circle of the Great"), Akhund Mulla Muhammad Vafro, jewelry studies, four major tazkiras, "Bahr ul-asror."

ABSTRACT

By the reign of the Ashtarkhanid dynasty, Bukhara retained its position as the main center of Islam in Central Asia. Scholars of Islam, mullahs, sheikhs, and teachers came here from all directions. We read the following about this in "Ubaydullanoma." "In the beautiful city of Bukhara and its surroundings, there were so many theologians, scholars, pious people, and saints that they could not be counted."

ASHTARXONIYLAR SULOLASI DAVRIDAGI BUXORO XONLIGI TARIXSHUNOSLIGI

Sotvoldiyev Sayfiddin Abduvokhid o'g'li

Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16537811>

ARTICLE INFO

Received: 20th July 2025

Accepted: 27th July 2025

Online: 28th July 2025

KEYWORDS

"Muhit ut-tavorix" (Tarixlar dengizi), "Tazkirayi Muqimkhoniy", rus elchisi A.F.Negri, mulla Sarfarozi, "Silsilat us-salotin" ("Buyuklar silsilasi"), Oxund Mulla Muhammad Vafro, javohirshunoslik, to'rtta yirik tazkira, "Bahr ul-asror".

ABSTRACT

Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davriga kelib, Buxoro O'rta Osiyoda islom dinining tayanch markazi sifatidagi mavqei saqlab qolgan. Bu yerga islom dinining bilimdonlari, mullalar, shayxlar, mudarrislar har tarafdin kelar edilar. "Ubaydullanoma" da bu haqida quyidagilarni o'qiyamiz. «Go'zal Buxoro shahrida va uning atroflarida ilohiyotchilar, olimlar, taqvo- dor va avliyo kishilar shu qadar ko'p ediki, ularning sanog'iga yetib bo'lmadi».



Asosiy qism: XVII-XVIII asr boshlari tarixini bayon etuvchi Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning “Muhit ut-tavorix” (Tarixlar dengizi), Abdurahmon Tole’ning “Abulfayzxon tarixi”, Muhammad Yusuf Munishiyning “Muqimxon tarixi” asarlari shu davrning mahsulidir. Bundan tashqari Mahmud ibn Vali (“Bahr- ul asror”), Xoja Samandar Termiziyniing “Dastur al-muluk” asari, Muhammad Vafo Karmanagiyniing “Tuhfat ul-xoniy”, Abdurahmon Davlatning “Tarixi Abulfayzxon” kabi tarixiy asarlari yaratildi. Subhonqulixonning zamondoshi shoir Turdi Farog’iyniing ijodi ham o’ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ashtarxoniylar sulolasi davridagi Buxoro xonligi tarixi “Tarixi Muqimxoniy”, “Ubaydullanoma” va “Tarixi Abulfayzxon” asarlarida bayon qilingan.

“Tarixi Muqimxoniy”ning muallifi Muhammad Jasur Xo’jabekov o’g’lidir. Muallif ijodiga ko’ra “Tazkirayi Muqimxoniy” ikki qismdan iborat bo’lishi zarur edi. Asarining birinchi qismida Ashtarxoniylardan Muhammad Muqimxoniyning Balx taxtiga o’tirishi; 1697 yil 15-noyabrdan boshlab, 1707-yil bilan tugagan. Muallif so’ziga ko’ra, “Agar uning xayot sha’mini charxning telba shamoli uchirib qo’ymasa va umrining chopqir otini yo’qlik dengizi to’lqinlari o’z domiga tortib ketmasa, u 1704-1705-yillardan keyin Balx va Buxoroda sodir bo’lgan voqealarni yoritishga axd qilgan edi”. Ammo bu orzuni ro’yobga chiqarish muallifga nasib etmagan. Bu asar haqida Arminiy Vamberi ham o’z qarashlarini bayon etgan: “Tarixda vorislik masalasida Subxonqulixonning oxirgi amrini “Tarixi Muqimxoniy”dan olib yozdik. Bu haqiqatda ham shunday bo’ldimi, yoki muallif o’z hukmdorining manfaatini ko’zlab shundoq yozdimi, bu jihati biz uchun tamoman qorong’u. Shu qatori ma’lumdirki, otalarining vafoti bilan ikki birodar orasida darhol urush boshlandi va bir necha yillar davom etdi. Podshoning vafoti haqidagi xabar Balxga etishi bilan Muqimxon o’zining birodariga avvalo ta’ziyanoma yubordi. Birozdan keyin taxtga o’tirishi bilan tabrikladi. Ukasining bu muomalasini samimiy emasligini sezgan Ubaydullaxon uning tomonidan yuborilgan hay’atni sovuqqina kutib oldi”, deb yozganligi ham asarning g’oyatda muhim manba ekanligini isbotlaydi. “Tarix Muqimxoniy” asarining birinchi qismi kirish va uch bobdan iborat. Kirish qismida muallif mavzuning qisqacha mazmunini keltirgan. Birinchi bobda O’rta Osiyoning XVI asr siyosiy tarixi bayon qilingan. II-III boblar tarixiy voqealarning asosiy mazmunini qamrab olgan, ularda Balx Buxoroning XVIII asrgacha bo’lgan siyosiy ijtimoiy iqtisodiy ma’naviy, madaniy tarixi mufassal bayon etilgan. III bobda 1702-1704 yillarda siyosiy voqealar, Balx va Buxoro xalqining qo’shini va chegaradosh mamlakatlar bilan o’zaro munosabatlari yozilgan. Ammo ohirigacha tugata olmagan. Undan olgan parchalar Semyovskiyning asarida 1824-yil e’lon qilishgan. 1820-1821-yillarda Buxoroga tashrif buyurgan rus elchisi A.F.Negri Buxoro hukmdori amir Haydardan (1800-1826) sovg’a tariqasida Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” asari qo’lyozma nusxasini qabul qiladi va o’zi bilan Peterburgga olib ketadi. Shuningdek, ingliz elchisi A.Byorns 1832-yil Buxoroda bo’lib, asarning ikkinchi qo’lyozma nusxasini qo’lga kiritadi va uni Angliyaga olib ketadi. Keyinchalik bu asar Buyuk Britaniya qirolligi kutubxonasiga kelib tushadi. Shu tariqa “Tarixi Muqimxoniy” Yevropaga ma’lum bo’ladi va asar ustida ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Ko’pchilik tadqiqotchilar “Tarix Muqimxoniy”ni XVI asr oxiri XVII asr boshidagi O’rta Osiyo tarixchiligiining muhim manbalari qatoriga kiritadilar. Shuning uchun asarning hozirda mamlakatimiz O’zbekiston, Angliya va Fransiyaning qo’lyozma xazinalarida 60 dan ortiq saqlanayotgan nusxalari mavjud. “Tarixi Muqimxoniy” Silvestr da-Sasi, Karl Zitler, German



Vamberi kabi yevropalik tarixshunoslarning doimiy nazarida turgan. Rus va sovet sharqshunosi, Sankt-Peterburg Fanlar Akademiyasi akademigi V.V. Bartoldning aytishicha, u uzoq vaqtlar yevropaliklar uchun Buxoro xonligi tarixi bo'yicha yagona manba bo'lib qolgan.

"Ubaydullonoma" XVII-XVIII asrlarda yashab o'tgan Mir Muhammad Amin Buxoriy asaridir. Bu asarning boshqa asarlardan farqi asardagi voqealar xronologiyasi, ba'zi ibratomuz naqlar, Ubaydullaxon faoliyatining ayrim jihatlariga tanqidiy munosabat kabilar bilan farq qiladi va eng asosiysi mustaqil asar hisoblanadi. Muhammad Amin Buxoriy o'qimishli va fozil kishilardan bo'lib, 1645-yilda Buxoroda tug'ilgan, vafot etgan yili esa ma'lum emas. Hayoti haqida ma'lumotlar deyarli saqlanmagan. Ashtarxoniylardan Subhonqulixon davrida saroydan chetlashtirilgan. Keyinchalik Ubaydullaxon II saroyida bosh munshiylik lavozimida xizmat qilgan. Ubaydullaxonning safarlarida hamroh bo'lib, o'z davrining fozil kishisi sifatida tanilgan. "Ubaydullonoma" Buxoro xonligining 1702-1716-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida hikoya qiladi. Asar 1716- yildan keyin yozilgan, muqaddima, asosiy 80 bob va xotimadan iborat. Muqaddima muallifning o'zi haqida, ya'ni Subxonqulixon hukmronligining so'nggi yillarida xizmatdan chetlashtirilib, og'ir ahvolga tushib qolganligi va Ubaydullaxon II xizmatiga qabul qilinishi, Abdulazizxon va Subxonqulixon davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli qisqa tarzda bayon qilingan. Asosiy qism hisoblangan 1-80-boblarda esa Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy tarixi batafsil yozilgan. Unda Ubaydullaxon II hukmronligi davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot hikoya qilinadi. Buxoro xonligining davlat tuzumi, yer egaligi, mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar (masalan 1708-yildagi pul islohoti), Balx, Termiz, Hisor, Shodmon, Shahrisabz kabi mahalliy viloyatlar hokimlari o'zboshimchaligiga qarshi Ubaydullaxonning olib borgan kurashi va qat'iy markazlashtirish siyosati, uning o'ldirilishi asarda o'z aksini topgan. Ubaydullaxonning o'limidan keyin Buxorodagi islohotlarga ham barham berilgan. Mahalliy bek va hokimlarning o'zboshimchaligi va ayirmachiligi kuchaygan. Buxoro xonligining katta qismida Qo'qon xonligi tashkil topdi. Shuningdek, asarda Abdulazizxon va uning vorisi Subhonqulixon davri haqida ham qisqa ma'lumotlar bor. Asarda so'nggi o'rta asrlarda Buxoro xonligidagi unvon, daraja va mansablar, turkiy qavmlar va urug'lar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Xotimada muallif bilan zamondosh mashhur olimlar, shoirlar (Sayido Nasafiy, Qosimxo'ja, Fitrat, Mulham), qozilar (mulla Sarfarozi) to'g'risida ma'lumotlar berilgan: «Ubaydullonoma»ning Toshkent, Dushanba, Sankt-Peterburgda 10 dan ortiq qo'lyozma nusxalari mavjud. Asar to'la ravishda A. Semyonov tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, 1957-yilda Toshkentda nashr etilgan.

"Tarixi Abulfayzxon" asarini Ubaydullaxon II va Abulfayzxon (1711-1717) saroyida xizmat qilgan munajjim, shoir va tarixchi olim Abdurahmon To'le yozgan. Asar Buxoro xonligining 1711-1723-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, XVIII asrning birinchi choragida Buxoro xonligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli zaiflashadi va ulus boshliqlarining, ya'ni mahalliy hukmdorlarning mustaqillik uchun olib borgan kurashi kuchaydi, ularning ayrimlari, masalan, Balx va Samarqand markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'yidilar, Farg'ona XVIII asr boshlarida 1709-yili Shoxruxbiy boshchiligidagi Ashtarxoniylar davlatidan ajralib chiqdi va o'lkada mustaqil Qo'qon xonligi tashkil topdi. 1722-yili Samarqandliklar Rajab Sulton boshchiligidagi mustaqilligini e'lon qildi (1722-1728) va Ashtarxoniylar bilan o'zaro urushlar boshlanib ketdi. "Tarixi Abulfayzxon" asarida mana shu masalalar keng yoritib berildi. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi



va o'zbek xalqining etnik tartibi haqida ham ayrim, diqqatga sazovor dalil va ma'lumotlar bor. "Tarixi Abulfayzxon" ning to'liq ruscha tarjimasi, zarur izohlar bilan 1959-yili A.A.Semyonov tomonidan Toshkentda nashr qilingan.

Keyingi tarixiy manba "Tuhfa ul Xoniy" hisoblanadi. Bu asar 1722-1782 yillardagi Buxoro xonligi tarixiga bag'ishlangan asar bo'lib, sharqshunos B. Axmedovning fikricha asar muallifi Oxund Mulla Muhammad Vafo ibn Muhammad Zokir Karminaviy va Nasaflik domla Olimbek Niyozqulibek eshondir. Tarixchilar nuqtai nazaridan shunisi bilan qimmatliki, tarixchilar o'zlari uchun O'rta Osiyo xalqlarining xo'jalik ijtimoiy-siyosiy tarixiga oid boy faktlarni topadi.

Ashtarxoniylar davri tarixiga oid yana bir muhim asar Hoji mir Muhammad Salim qalamiga "Silsilat us-salotin" ("Buyuklar silsilasi")dir. Uning qo'lyozma nusxalari juda kamyob bo'lib, bir nusxasi Angliyaning Oksford shahridagi Bodli kutubxonasida saqlanmoqda. "Silsilat us-salotin" asarini Nosiruddin Muhammadshohning topshirig'i bilan yozgan. Asarda Ashtarxoniylar davri tarixi, Eron va Hindiston bilan olib borgan diplomatik munosabatlari xususida batafsil ma'lumotlar berilgan. "Silsilat us-salotin"ning III-IV qismlari favqulodda ahamiyatga ega bo'lib, O'rta Osiyo, xususan O'zbekistonning XVI-XVIII asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon qiladi. Bundan tashqari asarda Balx va Badashxon, Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti, Shohjahonning Balx va Buxoro xonligi ichki ishiga qurolli aralashuvi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Asar 1731-yilda yozilgan bo'lib, muqaddima va to'rt qismdan iborat.

Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-mulk" (Podshohlar uchun dastur) asarini Subhonqulixon davri davlatchiligi tarixi va tuzumi haqidagi asari ham alohida ahamiyatga ega.

XVII asrda yozilgan yana bir asar balxlik qomusiy olim Mahmud ibn Vali (1597 yilda tavallud topgan, vafot etgan yili aniqlanmagan) qalamiga mansubdir. Asar «Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor» («Olijanob kishilarning jasorati haqida sirlar dengizi») deb ataladi. U 1631-1641 yillar orasida Balxda yuqorida nomi tilga olingan Nodir Muhammadxonning topshirig'i bilan yozilgan. Asar ko'p jildlik bo'lib, birinchi jildning katta bir qismi javohirshunoslik (qimmatbaho toshlar) ilmiga bag'ishlangan.

XVII-XVIII asrlarda Buxoroda to'rtta yirik tazkira yaratilgan. Bular Mutribiyning "Tazkirat ash-shuaro", Malixo Samarqandiyning "Muzakkir al asxob", Mulla Sodik Samarqandiyning "Riyoz ash-shuaro", Nurmuhammad Nasafiyning "Masxan an-musannifin", tazkiralardir. Birgina Mutribiyning tazkirasida uch yuz yigirmadan ziyod shoirlar haqida ma'lumotlar bor. Bu davrda Sayido Nasafiy Qarshida tikuvchilik qilib, ijod qilgan bo'lsa, samarqandlik ijodkorlar G'ofur Samarqandiy attorlik, Masixo temirchilik, Manzur Samarqandiy kosiblik, Fitrat Samarqandiy zardo'zlik bilan shug'ullanganlar.

Xulosa qilib aytganda mamlakatdagi siyosiy vaziyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar Ashtarxoniylar ilm, madaniyat, san'at va me'morchilikka homiylik qilganlar. Shuning uchun ham Shayboniylar davrida rivoj topgan fan va madaniyat o'z an'analari bo'yicha ashtarxoniylar davrida ham davom etdi. XVII asrda ijod qilgan ilm ahli shoirlar va tarixchilar ilgaridan kam bo'lmaganligini . 1692-yilda Muhammad Badiy Samarqandiy tomonidan bitilgan tazkirada bilishimiz mumkin. XVII asrda yashagan 165 nafar ijodkorning nomi tilga olinganligi bu fikrning isbotidir. Shu bilan bir qatorda, xonlikda bir yuz ellikdan ortiq madrasa bo'lgan. Qonuniy bilim sohibi Mahmud Ibn Vali o'zining 1636-yilda yozilgan "Bahr ul- asror" asarida Samarqand Buxoro shaharlarida yashagan 20 nafar olim haqida ma'lumot beradi. To'g'ri Ashtarxoniylar



sulolasi davrida xalq to'la to'kis hayot kechirmagandir ammo ilm-fan, taraqqiyot rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishga harakat qildilar. Hozirgi kunda bu davr tarixshunosligi hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda, sababi manbalarning kamligi emas, balki o'rganishiz kerak bo'lgan manbalarning ko'pligi sabablidir.

References:

1. A. Erqo'ziyev. Buxoro xonligi tarixi: o'quv qo'llanma. Namangan -2018. 6-12-bet.
2. A. Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi, 2-jild. Toshkent-2019. 145-bet.
3. Bakalavriyatning tarix yo'nalishi talabalari uchun darslik. A.Madraimov, G. Fuzailova. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
4. B. Ahmedov. Tarixdan saboqlar: Toshkent -1994. 19-20-bet.
5. S.A.Toshtemirova, D.B.Ahmadjonov. Markaziy Osiyo xonliklari tarixshunosligi. Toshkent-2022. 10-11-bet.
6. B.J.Eshov va A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi II kitob. Toshkent -2024. 181-185-betlar.